



Baxodir AXMEDOV,
Qarshi davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: bahodir7722@gmail.com

T.f.d., professor Q.Qodirov taqrizi asosida

TURKISTONDA ISHCHI-DEHQON MILITSIYASINING TASHKIL ETILISHI VA RIVOJLANIB BORISH TARIXI

Annotatsiya

Ushbu maqolada XX asr boshlarida Turkiston hududida ishchi-dehqon militsiyasining tashkil etilishi, uning huquqiy va tashkiliy asoslarining shakllanishi, kadrlar tizimining yaratilishi hamda faoliyat yo'nalishlarining bosqichma-bosqich rivojlanish jarayoni tarixiy-huquqiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur davrdagi ijtimoiy-siyosiy sharoit, davlat boshqaruvi tizimidagi islohotlar va jamoat tartibini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar militsiya organlarining institutsional shakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatgani ochib beriladi. Maqolada ishchi-dehqon militsiyasining vakolatlari, funksiyalari va jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni hamda uning keyingi bosqichlardagi evolyutsiyasi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston o'lkasi, ishchi-dehqon militsiyasi, sinfiy tamoyil, ichki ishlar xalq komissarligi, qizil gvardiya, podsho Rossiyasi, sovetlar.

ИСТОРИЯ СОЗДАНИЯ И РАЗВИТИЯ РАБОЧЕ-КРЕСТЬЯНСКОЙ МИЛИЦИИ В ТУРКЕСТАНЕ

Аннотация

В данной статье анализируется процесс организации рабочей-крестьянской милиции в Туркестане в начале XX века, формирование её правовых и организационных основ, создание кадровой системы и постепенное развитие сфер её деятельности на основе историко-правовых источников. Также раскрывается влияние социально-политических условий этого периода, реформ в системе государственного управления и мер, направленных на обеспечение общественного порядка, на институциональное формирование полицейских органов. Статья научно обосновывает полномочия, функции и роль рабочей-крестьянской милиции в обеспечении общественной безопасности, а также её эволюцию на последующих этапах.

Ключевые слова: Туркестанский край, рабоче-крестьянская милиция, классовый принцип, Народный комиссариат внутренних дел, Красная гвардия, царская Россия, Советы.

THE HISTORY OF THE ESTABLISHMENT AND DEVELOPMENT OF THE WORKERS' AND PEASANTS' POLICE IN TURKESTAN

Annotation

This article analyzes the organization of the workers and peasants' police in Turkestan at the beginning of the 20th century, the formation of its legal and organizational foundations, the development of its personnel system, and the gradual development of its areas of activity, drawing on historical and legal sources. It also examines the influence of the sociopolitical conditions of this period, reforms in the public administration system, and measures aimed at ensuring public order on the institutional development of police agencies. The article provides a scientific justification for the powers, functions, and role of the workers and peasants' police in ensuring public safety, as well as its evolution in subsequent stages.

Key words: Turkestan region, Workers' and Peasants' Police, class principle, People's Commissariat of Internal Affairs, Red Guard, Tsarist Russia, Soviets.

Kirish. XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar davlat boshqaruvi tizimi, jamoat tartibini saqlash hamda huquqni muhofaza qilish organlarining shakllanishida tub burilishlar sodir qildi. 1917-yildagi inqilobiy voqea hodisalar natijasida amalda bo'lgan podsho Rossiyasi ma'muriy-huquqiy tizimi inqirozga uchrab, uning o'rnida esa yangi sinfiy tamoyillarga asoslangan boshqaruv shakllari joriy etila boshlandi. Bu jarayonlarda ishchi va dehqonlar manfaatlarini himoya qilishni maqsad qilgan yangi huquqni muhofaza qiluvchi tuzilma – ishchi-dehqon militsiyasi tashkil etildi.

Turkistonda ishchi-dehqon militsiyasining vujudga kelishi o'lkadagi murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyat, iqtisodiy beqarorlik, jinoyatchilikning o'sishi hamda davlat hokimiyatini mustahkamlash zarurati bilan bevosita bog'liq edi.

Yangi hokimiyat uchun jamoat xavfsizligini ta'minlaydigan, inqilobiy tartibni muhofaza qiluvchi hamda mahalliy aholi orasida tayanch bo'ladigan tuzilmani

shakllantirish muhim strategik vazifaga aylandi. Shu munosabat bilan militsiya organlari sinfiy asosda, asosan ishchi va kambag'al dehqon qatlamlari vakillaridan tashkil etildi.

Mazkur maqolada Turkistonda ishchi-dehqon militsiyasining tashkil etilishi tarixi, uning huquqiy asoslari, tashkiliy tuzilishi hamda faoliyatining dastlabki bosqichlari ilmiy manbalar va arxiv hujjatlari asosida tahlil qilinadi. Shu bilan birga, militsiya organlarining o'lkada sovet hokimiyatini mustahkamlashda tutgan o'rni va ahamiyatiga ham tarixiy-huquqiy nuqtayi nazardan baho beriladi.

“Ishchi-dehqon militsiyasi” – sovet hokimiyati O'rta Osiyo, ayniqsa Turkiston hududida qaror topganidan keyin vujudga kelgan dastlabki harbiy-tashkiliy tuzilmalardan biri hisoblanadi. U jamiyatda keskin siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar kechayotgan murakkab tarixiy sharoitda shakllantirilgan edi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. 1917-yilda Rossiyada sodir bo'lgan fevral va undan keyingi oktyabr

inqiloblari natijasida podsholik boshqaruvi barham topib, mamlakatda sovet hokimiyatini o'rnatish jarayoni boshlandi. Oktyabr voqealaridan so'ng Turkiston o'lkasida ham siyosiy boshqaruv tizimi tubdan o'zgardi. 1917-yil noyabridan e'tiboran bu hududda sovet hukumatini joriy etishga qaratilgan harakatlar avj olib, ular qurolli to'qnashuvlar, ichki qarama-qarshiliklar va keskin siyosiy kurashlar bilan kechdi.

1917-yil 28-oktyabrda (10-noyabr) sovet hukumatining vakolatiga binoan ichki ishlar xalq komissarligi "Ishchi-dehqon militsiyasi to'g'risida"gi qarorni qabul qildi. Bu yangi turdagi militsiya tashkil etilganligi haqidagi birinchi ko'rsatma bo'lib xizmat qildi [1]. Ushbu qaror orqali ishchi, dehqon va soldat deputatlari sovetlariga inqilobiy intizomni kuchaytirish hamda jamoat tartibini ta'minlash maqsadida ichki militsiya tuzilmalarini tashkil etish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi. Mazkur hokimiyat organi to'liq ravishda sovetlar nazoratiga bo'ysundirilib, u proletariat diktaturasini mustahkamlashga xizmat qiladigan muhim siyosiy vosita sifatida qaraldi. Ishchi-dehqon militsiyasini qurol-yarog', texnika va boshqa zarur vositalar bilan ta'minlash mas'uliyati harbiy hamda fuqarolik hokimiyat idoralariга yuklatildi. Shu bilan birga, bu qaror sovetlar zimmasiga nafaqat ishchi militsiyasini tashkil etish vazifasini qo'ydi, balki sotsialistik jamoat tartibini muhofaza qilishning huquqiy asoslarini mustahkamlab, sovet militsiyasining barqaror tizimini shakllantirishga xizmat qildi. Ana shu tarixiy ahamiyatdan kelib chiqib, har yili 10-noyabr sanasi xalq tomonidan "sovet militsiyasi kuni" sifatida keng nishonlanib, uning o'rni va ahamiyati yuksak baholanib kelingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Bu davrga kelib, Turkistonda ishchi va dehqonlar militsiyasini tashkil etish ishlari boshlandi. Turkiston o'lkasi xalq komissarlari sovetining 1917-yil 18-noyabrdagi qarorida barcha ishchi, dehqon va soldat deputatlari sovetlariga qizil gvardiya tuzish taklifi berildi. Qizil gvardiyaga, jumladan fuqarolarning shaxsi va mol-mulkini muhofaza qilish vazifasi ham topshirilgan edi [2].

1917-yil 13-dekabrda Turkiston Markaziy ijroiya qo'mitasi tomonidan "Turkiston Respublikasining sovet militsiyasi to'g'risida"gi nizomi tasdiqlanadi [3]. Ushbu nizomda Turkiston ishchi-dehqon militsiyasi xodimlarining asosiy xizmatlari, ularga quyiladigan talablar va hudud navbatchisining vazifalari hamda shahar va yezd militsiya bo'limi boshlig'i va ularning yordamchilari tomonidan bajariladigan vazifalar yoritilgan edi.

Oktyabr to'ntarishi ortidan boshlangan inqilobiy jarayonlar mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida beqarorlikni yuzaga keltirdi. Bunday vaziyatlar militsiya faoliyatiga ham ta'sir etib, uning shakllanish jarayoniga o'z ta'sirini o'tkazdi va 1918-yil 29-yanvarda Turkiston o'lkasi xalq komissarlari sovetining "militsiya uchun zaxira kadrlarni yaratish to'g'risida"gi dekreti e'lon qilindi. Bu dekret qabul qilinishi bilan ishchi-dehqon militsiyasining amaldagi faoliyati yanada takomillashtirildi. Ushbu hujjatda qayd etilishicha, zaruriyat tug'ilganda temir yo'l ma'muriyati va turli komitetlar qizil gvardiyadan yordam so'rash huquqiga ega bo'lgan. Shu bilan birga, nafaqat harbiy qismlar, balki soqchilik vazifasini bajarayotgan ayrim askarlar ham huquq-tartibotni saqlash ishlariga jalb etilgan. Sovet militsiyasining apparati hukumat tomonidan ishchilar sinfi va kambag'al dehqonlardan iborat mehnatkash vakillari bilan to'ldirib borilgan [4].

Turkistonda militsiya apparati turli tashkiliy shakllarda, turli xil mablag'lar hisobiga (ba'zi joylarda aholi mablag'lari hisobiga) tashkil etilgan va ko'p hollarda mahalliy sovetlarga bo'ysungan [5].

Turkiston o'lkasi militsiyasi kadrlarini shakllantirishdagi ayrim jihatlarni keltirib o'tamiz.

1918-yil 8-yanvarda fuqarolik-ma'muriy masalalar bo'yicha xalq komissari ishchi va soldat deputatlari Perov va

boshqa kengashlariga "Toshkent xalq militsiyasi safiga kirishni xohlovchilar uchun ro'yxat ochish"ni taklif qiladi. Uning xatida shunday yozilgan edi: "Belgilangan xizmatga faqat mukammal o'tmishga ega shaxslar qabul qilinadi. Har bir nomzodning qisqacha tarjimai holi bo'lishi lozim". 1918-yil 14-yanvarda Turkiston o'lkasi Xalq komissarlari kengashi fuqarolik-ma'muriy masalalar bo'yicha komissariga "tahdid solayotgan anarxiya va o'g'irlikka qarshi muvaffaqiyatli kurashish uchun" militsiya zaxira kadrlari shakllantirish ustavi va tartibini ishlab chiqishni taklif qiladi. Ushbu topshiriqni bajarish maqsadida Sirdaryo viloyati shaharlarida militsiyani tashkil qilish uchun vakolatli shaxs Toshkent shahri militsionerlari lavozimiga arizalarga qabul qilinishini e'lon qildi. Jamoat tashkilotlariga o'z nomzodlarini tegishli tavsiyanomalar bilan yuborish taklif qilindi. Bu haqida 1918-yil 17-yanvarda matbuotda xabar berilgan edi [6].

Sovet militsiyasining tarkibida asosiy xodimlardan tashqari, alohida zaxira guruhi ham bo'lgan. Bu zaxira guruhining asosiy vazifalari jamoat tartibini saqlashda, yong'inlar sodir bo'lganda ularni o'chirishda, suv toshqinlari va boshqa tabiiy ofatlarni bartaraf etishda militsiya organlariga ko'maklashish hamda qamoqdagi mahbuslarni nazorat qilish va soqchilik qilish vazifalarini o'z zimmasiga olgan edi.

Tahlil va natijalar. O'zbekistonda 1918-yil 29-yanvardagi Turkiston Xalq komissarlari kengashining "Zaxira kadrlarini yaratish va politsiyani qayta tashkil etish to'g'risida"gi 17-sonli buyrug'i asosida Turkiston viloyatining shaharlari va tumanlarida politsiya organlari tashkil etildi va 1918-yil 1-iyulda ichki ishlar xalq komissarligi va dehqon militsiyasi ishga nomzodlarni qabul qila boshladi [7].

1918-yil 13-oktyabrdagi "Sovet ishchilari va dehqonlari tashkiloti to'g'risida"gi qo'shma ko'rsatma hamda "Sud xarajatlarini hisoblash tartibi to'g'risida"gi buyruqda militsiya xizmatini tashkil etish va boshqarish, xodimlarni tanlash, shuningdek ular bilan ishlash tartibini belgilovchi ko'rsatma qabul qilingan. Tuman va shahar militsiya bo'limlarida xodimlarni hisobga olish tizimi joriy etilgan [7].

E'tiborli tomoni, o'zbek romanchiligi asoschisi Abdulla Qodiriy ham o'sha davrda tuzilgan xalq militsiyasiga ko'ngilli bo'lib yozilgan ekan. Bu haqida o'zining tarjimai holidi shunday yozadi: "Nikolay taxtdan yiqilg'onidan keyin oddiy xalq militsiyasiga ko'ngilli bo'lib yozildi... Nikolayning taxtdan yiqilib, hurriyat bo'lg'oniga xursandligim dunyoga sig'mas edi...". Abdulla Qodiriy aynan demokratik esgan damlarda ko'ngilli militsiya xodimi sifatida Vatanga xizmat qiladi [8].

1918-yil 2-noyabrda dushman tarafdorlarining militsiya saflariga noqonuniy ravishda kirishining oldini olish va ichki ishlar tizimining ishonchligini ta'minlash maqsadida Turkiston ASSR Xalq komissarlari kengashi tomonidan 355-sonli "Uchastka (militsiya) boshliqlari saylovini bekor qilish to'g'risida"gi buyruq qabul qilindi. Ushbu sanadan boshlab, uchastka (militsiya) boshliqlari saylov orqali emas, balki tegishli davlat organlari tomonidan tayinlash tartibida lavozimga qo'yiladigan bo'ldi. Bu choralar xavfsizlikni ta'minlash va militsiya organlariga ishonchli, sadoqatli kadrlarni jalb etish maqsadida amalga oshirilgan. Joylarda militsiyani tashkil qilishda yuzaga kelgan tashkiliy muammolar, ular oldiga qo'yilgan vazifalarni malakali tarzda hal qilish zaruriyati maxsus tayyorlangan rahbar xodimlar va respublika militsiya apparatini mustahkamlashni talab qilar edi. 1918-yil 26-noyabrda ichki ishlar komissariyati huzuridagi yig'ilish ikkita bo'linma: tashqi militsiya instruktorlarini tayyorlash uchun umumiy va jinoyat qidiruv instruktorlarini tayyorlash – maxsus bo'linmalarni o'z ichiga olgan militsiya instruktorlarini tayyorlash maktablarini tashkil qilish taklifini ma'qulladi hamda shu yilning 2-dekabrda mazkur kurslar to'g'risidagi nizom tasdiqlandi va nashr qilindi [9].

1918-yil 31-dekabrda "Nasha gazeta"da 45 kishidan iborat shunday ro'yxat chop etildi. Komissariat ko'rsatilgan shaxslarning sovet militsiyasida xizmat qilishga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan haqiqiy faktlarga ega barcha hukumat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari, ittifoqlari va barcha fuqarolardan ular haqida ichki ishlar komissariatiga xabar berilishini so'rab murojaat qildi [10].

Mas'uliyatli rahbarlik lavozimlariga tayinlash jarayoni faqatgina partiya va sovet organlari, shuningdek, mas'ul xodimlar yoki kommunistik partiya a'zolarining tavsiyalari asosida amalga oshirilgan. Bu amaliyot kadrlar siyosatida ishonchlilik va siyosiy sadoqat mezonlarini ustuvor qilib belgilash maqsadida joriy etilganligini ko'rishimiz mumkin.

O'sha davrlarda, milliy matbuot sahifalarida Turkiston militsiyasiga "5-yil" Abdulhay (Abdulhay Tojiyev)ning sarlavhasida "Sho'rolar hukumatining qiyin kunlar kechirib turg'on birinchi yilida, mutaxassislar yordami bilan emas, balki ishchi-dehqonlarning o'z qo'li bilan yuzaga chiqirilg'on militsiyaning tuzilishiga bu kun rosa 5-yil to'ladi. Shul 5-yil ichida birinchi marotaba bo'lib turg'on bu qadrlilik bayramda, militsiyalarning xalqni tinch saqlash yo'lida qilg'on ulug' xizmatlarini bir daraja xayoldan kechirib, taqdir qilib o'tmak kerak bo'ladi. Turkistonda kuchayib kelgan banditizm-bosmachilik ulardan juda ko'p kuchni talab qildi. Militsiya o'zining och-yalong'ochlig'iga qaramasdan bosmachilik bilan kurashga aralashdi. Bu kurashda ular o'z oralaridan bir qancha botirlarni yo'qotdilar. Hukumat va xalqning qilib turg'on yordamlarini ko'rgan har bir sof qalblilik, ishga dardlik militsiya kelgusida ham ishchi-dehqon foydasi uchun jon berishga hozir ekanligi to'g'risida bugun muqaddas va'dasini beradi" - deb yozilgan [11].

1933-yil 25-noyabrda SSSR Markaziy Ijroiya Komiteti Prezidiumi "Ishchi-dehqon militsiyasining faxriy xodimi" degan ko'krakka taqiladigan nishon ta'sis etdi, bu nishon bilan xizmat vazifalarini bajarish vaqtida mardlik va fidokorlik ko'rsatgan xodimlar mukofotlanar edi. Shuningdek, SSSR Markaziy Ijroiya Komiteti Butunittifoq militsiyasining sotsialistik mulkni, huquq-tartibotni saqlashdagi buyuk xizmatlarini qayd etib va militsiyaning yigirma yilligi

munosabati bilan alohida o'rnak ko'rsatgan militsiya xodimlaridan 73 kishini "Qizil yulduz" ordeni va 260 kishini "Hurmat belgisi" ordeni bilan mukofotladi [12].

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Turkistonda ishchi-dehqon militsiyasining tashkil etilishi XX asr boshlaridagi keskin ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, davlat hokimiyatining yangi shaklda qaror topishi hamda jamoat tartibini ta'minlashga bo'lgan ehtiyoj bilan uzviy bog'liq jarayon hisoblanadi. Podsho Rossiyasi ma'muriy-huquqiy tizimining barham topishi natijasida vujudga kelgan boshqaruv bo'shlig'ini to'ldirish maqsadida sovet hokimiyati tomonidan sinfiy tamoyillarga asoslangan yangi huquqni muhofaza qiluvchi organ – ishchi-dehqon militsiyasi shakllantirildi.

Ishchi-dehqon militsiyasining faoliyati dastlabki bosqichlarda huquqiy bazaning yetarli darajada shakllanmagani, kadrlar tanqisligi hamda mahalliy ijtimoiy-siyosiy sharoitlarning murakkabligi bilan tavsiflanadi. Shunga qaramasdan, mazkur tuzilma jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat xavfsizligini ta'minlash va yangi hokimiyat qarorlarini joylarda amalga oshirishda muhim o'rin tutdi. Militsiya organlari orqali sovet hokimiyati o'z ma'muriy ta'sirini kengaytirib, o'lkada davlat boshqaruvi tizimini mustahkamlashga erishdi.

Shu bilan birga, ishchi-dehqon militsiyasining tashkil etilishi va faoliyati o'sha davr mafkuraviy talablari ta'sirida shakllangan bo'lib, uning faoliyatida sinfiy yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etgani kuzatiladi. Bu holatlar militsiyaning faqat huquqni muhofaza qiluvchi organ sifatida emas, balki siyosiy hokimiyat manfaatlarini ta'minlovchi tuzilma sifatida ham faoliyat yuritganini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Turkistonda ishchi-dehqon militsiyasining tashkil etilishi tarixi o'lkada sovet davlatchiligining shakllanish jarayonini anglash, huquqni muhofaza qilish organlarining rivojlanish bosqichlarini tahlil etish hamda bu sohada tarixiy tajribadan ilmiy xulosalar chiqarish uchun muhim ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot natijalari tarixiy merosni hisobga olish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR

1. O'z MDA, R-39, R-3, yig'ma jild 25, 13-bet.
2. O'z MDA R-25, R-1, yig'ma jild 6, 9-bet.
3. O'z MDA O'z SSR 339-fond, R-1, yig'ma jild 664, 40-bet.
4. O'z MDA R-25, R-1, yig'ma jild 6, 65-bet.
5. Podrobneye o stroitelstve apparata militsii v Turkestane sm.: T.A.Djalilov. Sozdaniye raboche-krestyanskoy militsii v Turkestane i eye deyatelnost po ukrepleniyu Sovetskoy vlasti. Kandidatskaya dissertatsiya. Tashkent, 1964.
6. O'z MDA, 39-fond, 1-ro'yxat, 76-ish, 12-bet.
7. Nazarmuhammedov, D.A (2024). "History of the Formation of Personnel Policy in the Internal Affairs Bodies of the Republic of Uzbekistan". International Journal Of law And Criminology, Volume 04, Issue 05, 2024. pp. 34
8. Qodiriy militsioner bo'lganmi? A.Yermetov, "Tafakkur" jurnali, 2003-yil №3, 91-bet.
9. O'z MDA, 39-fond, 1-ro'yxat, 664-ish, 14,15-betlar.
10. O'z MDA, 399-fond, 1-ro'yxat, 22-ish, 11-bet.
11. Abdulhay (Abdulhay Tojiyev) "Turkiston" gazetasi 1923-yil 24-fevral.
12. Qodirov Q.B. O'zbekiston ichki ishlar organlari faoliyati tarixi: O'quv qo'llanma.–T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020.55-56-betlar.